

Xorijdagi O'zbekiston fuqarolariga maslahatlar

O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari ularning konsullik okrugiga kiruvchi xorijiy davlatga kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini vaqtincha va doimiy ro'yxatga oladi.

Chet elda vaqtincha va doimiy yashayotgan O'zbekiston fuqarolarini vaqtincha va doimiy ro'yxatga olish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

1. Xizmat safari, o'qish, davolanish yoki kontrakt bo'yicha ishlash maqsad chet elga chiqayotgan O'zbekiston fuqarolarini vaqtincha ro'yxatga olish.

Olti oydan ortiq muddatga xizmat safari, o'qish, davolanish yoki kontrakt bo'yicha ishlash maqsad chet elga ketgan O'zbekiston fuqarolari O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarida vaqtinchalik konsullik ro'yxatida turishlari lozim.

Vaqtinchalik konsullik ro'yxatini qayd etish uchun belgilangan namunadagi ro'yxat kartochkasi to'ldiriladi.

Vaqtinchalik konsullik ro'yxatga olish ucun konsullik va boshqa to'lovlar olinmaydi.

2. Chet elda doimiy yashash maqsadida ketayotgan O'zbekiston fuqarolarini doimiy ro'yxatga olish.

Chet elda doimiy yashayotgan O'zbekiston fuqarolarini O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarida doimiy konsullik ro'yxatida turishlari lozim.

Doimiy konsullik ro'yxatini qayda etish uchun belgilangan namunadagi ro'yxat kartochkasi to'ldirilib, ro'yxatga turuvchi fuqaroninig surati ro'yxat kartochkasiga biriktiriladi.

Doimiya ro'yxatga olishda pasportga quyidagi mazmundagi belgi qo'yiladi: «(O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasining nomi va joyi) da konsullik ro'yxatiga olindi», sana va ro'yxatga oluvchi xodimninig imzosi.

Doimiy konsullik ro'yxatga olish ucun 5 AQSh dollari miqdoridagi konsullik yiq'implari va 10 dan 20 AQSh dollari miqdoridagi haqiqiy xarajatlar uchun to'lovlar olinadi.